



ARAB TILIDA IJOD QILGAN MUARRIX VA GEOGRAFLARNING O'RTA OSIYO SIYOSIY-MA'MURIY VA IQTISODIY HAYOTIGA OID ASARLARI (IX-XI ASRLAR)

Numonov Islom Rajab o'g'li

Osiyo xalqlaro universiteti

“Xorijiy til va ijtimoiy fanlar” kafedrası

1-bosqich magistri, numonovislam@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21101308>

ARTICLE INFO

Received: 21st June 2026

Accepted: 25th June 2026

Published: 30th June 2026

KEYWORDS

arab tarixnavisligi, O'rta Osiyo, Movarounnahr, Xuroson, Somoniylar, Narshaxiy, Ibn Xurdodbeh, al-Istaxriy, Ibn Havqal, al-Maqdisiy, savdo, soliq.

ABSTRACT

Mazkur maqolada IX-XI asrlarda arab tilida yaratilgan tarixiy, geografik va ma'muriy-fiskal asarlarning O'rta Osiyo, xususan Movarounnahr va Xuroson ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganishdagi o'rni tahlil qilinadi. Narshaxiy, at-Tabariy, al-Ya'qubiy, Ibn Xurdodbeh, Ibn al-Faqih, al-Istaxriy, Ibn Havqal, al-Maqdisiy, Qudama ibn Ja'far va al-Utbiy asarlaridagi shaharlar, sug'orish tizimlari, yer egaligi, soliqlar, hunarmandchilik, savdo yo'llari, bojlar va pul muomalasiga oid ma'lumotlar qiyosiy ko'rib chiqiladi. Ushbu manbalar bevosita iqtisodiy tadqiqot sifatida yozilmagan bo'lsa-da, ularning ma'lumotlarini tanqidiy tahlil qilish Somoniylar davri xo'jalik tizimi va ijtimoiy munosabatlarini tiklash imkonini beradi.

IX-XI asrlar O'rta Osiyo tarixida siyosiy markazlashuv, shaharlarning yuksalishi va mintaqalararo iqtisodiy aloqalarning kengayishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa Somoniylar hukmronligi davrida Buxoro va Samarqand yirik siyosiy hamda iqtisodiy markazlarga aylandi; Choch, Iloq, Farg'ona, Xorazm, Marv va Nishopur bilan uzviy xo'jalik aloqalari shakllandi. Mazkur jarayonlarni o'rganishda arab tilida yozilgan tarixiy va geografik asarlar birlamchi manbalar qatoriga kiradi.

Mavzuni yoritishda “arab muarrixlari” iborasini etnik mansublik bilan cheklash metodologik jihatdan to'g'ri emas. O'rta asr musulmon tarixnavisligida turli xalqlarga mansub olimlar ilmiy asarlarini arab tilida yaratganlar. Shu sababli maqolada arab tilida ijod qilgan tarixchi, geograf va ma'muriy bilim sohiblarining asarlari tadqiqot obyekti sifatida olinadi. Fors tilida yozilgan “Hudud al-olam”, Gardiziy va Bayhaqiy asarlari esa mavzuning asosiy manbalari emas, faqat ayrim xabarlarini qiyoslash uchun yordamchi manba bo'la oladi.

Arab tilidagi manbalarning iqtisodiy axboroti bir xil xarakterga ega emas. Tarixiy xronikalarda iqtisodiy hodisalar siyosiy voqealar fonida qayd etilsa, geografik asarlarda shaharlar, yo'llar, mahsulotlar va bozorlar tizimliroq tasvirlanadi. Ma'muriy-fiskal risolalarda esa soliqlar, pochta yo'llari va davlat daromadlari haqidagi ma'lumotlar ustun turadi. Shu bois ularni muallifning maqsadi, asarning yaratilgan davri va axborot manbalari hisobga olingan holda tahlil qilish zarur.

Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning X asrda arab tilida yozilgan “Buxoro tarixi” asari O'rta Osiyodagi mahalliy tarixnavislikning eng muhim namunalaridan biridir. Asarning

arabcha asl nusxasi saqlanmagan; u XII asrda fors tiliga tarjima qilinib, qisqartirilgan tahrirda bizgacha yetib kelgan. Shuning uchun undagi dastlabki qatlam bilan keyingi qo'shimchalarni farqlash manbashunoslikning asosiy talabidir [1].

"Buxoro tarixi"ning mavzu uchun qimmatini Buxoro vohasidagi siyosiy, ma'muriy, iqtisodiy hayotini mahalliy tafsilotlar bilan yoritilganidadir. Narshaxiy Tavoisda o'n kunlik yarmarka o'tkazilgani, unga Farg'ona, Choch va boshqa hududlardan savdogarlar kelganini qayd etadi. Iskajkat aholisi savdo va mato ishlab chiqarish bilan shug'ullangani, Zandanada tayyorlangan "zandanijiy" matosi Iroq, Fors, Kirmon va Hindistonga chiqarilgani haqidagi xabarlar voha qishloqlarining ham mintaqalararo savdo tizimiga qo'shilganini ko'rsatadi [1, 13-16-b.].

Narshaxiy sug'orma dehqonchilikka xizmat qilgan Karmana, Shopurkom, Xarqona, Avxitfar, Somjon, Baykon va boshqa kanallarni sanaydi [1, 31-32-b.]. Bu ma'lumotlar Buxoro vohasida ishlab chiqarishning suv infratuzilmasiga bevosita bog'liq bo'lganini anglatadi. Yerlarning bahosi, suv ta'minoti va soliq miqdori o'rtasidagi bog'liqlik ham asarda aniq ko'rinadi. Muallif Buxoro va unga qarashli hududlardan undirilgan xiroj miqdorini keltirib, suv toshqini, yerlarning vayron bo'lishi va vaqf mulklarining kengayishi tufayli soliq tushumlari o'zgarganini yozadi [1, 33-34-b.].

At-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asari Movarounnahrda siyosiy vaziyatni tushunishda muhimdir [11]. Unda xalifalikning sharqiy viloyatlari, Tohiriylar, Safforiylar va Somoniylar o'rtasidagi munosabatlar, harbiy yurishlar hamda qo'zg'olonlar haqida ma'lumot beriladi. Bu xabarlar bevosita bozor yoki ishlab chiqarishni tasvirlamasada, savdo yo'llari xavfsizligi, soliq bazasi va irrigatsiya tizimlarining barqarorligiga ta'sir etgan siyosiy sharoitni tiklashga yordam beradi.

Al-Ya'qubiyning tarixiy va geografik asarlari ham xalifalik viloyatlarining ma'muriy-iqtisodiy holatini o'rganishda ahamiyatlidir [4]. Uning ma'lumotlarida viloyatlarning joylashuvi, siyosiy bo'ysunishi va daromad manbalari bir-biri bilan bog'liq holda yoritiladi. XI asr boshlarida arab tilida yozgan al-Utbiy esa "Tarix al-Yamini" asarida Somoniylar davlatining inqirozi va G'aznaviylar kuchayishini tasvirlaydi. Bu asar siyosiy hokimiyat almashinuvi Xurosonning moliyaviy va harbiy resurslarini nazorat qilish bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi. IX-X asrlarda "masolik va mamolik" yo'nalishida yaratilgan geografik asarlar O'rta Osiyo iqtisodiy tarixining eng boy yozma manbalaridir. Ularning mualliflari shaharlar o'rtasidagi masofalar, pochta va karvon yo'llari, bozorlarda sotiladigan mahsulotlar, tabiiy boyliklar, boj va soliqlar haqida nisbatan tizimli ma'lumot berganlar.

Ibn Xurdodbehning "Kitob al-masolik va-l-mamolik" asari IX asrdagi yo'l va pochta tizimini yoritadi [3]. Muallif davlat boshqaruvi bilan bog'liq tajribaga ega bo'lgani sababli yo'nalishlar, masofalar va fiskal ma'lumotlarga alohida e'tibor qaratgan. Uning xabarlarini Movarounnahrning Bag'dod markazli iqtisodiy va ma'muriy tarmoqqa qo'shilganini, savdo yo'llari bilan davlat aloqa tizimi o'zaro tutashganini ko'rsatadi.

Ibn al-Faqihning "Muxtasar Kitob al-buldon" asarida O'rta Osiyo shaharlari, tabiiy sharoiti va ayrim mahsulotlari haqida ma'lumotlar uchraydi [5]. Asar kompilyativ xususiyatga ega bo'lgani uchun undagi xabarlarning kelib chiqishini aniqlash va ularni boshqa geograflar ma'lumotlari bilan tekshirish lozim. Shunga qaramay, u IX asr oxiri geografik bilimlarining tarkibi va mintaqa haqidagi tasavvurlarni o'rganish uchun muhimdir.

Al-Istaxriyning "Kitob al-masolik va-l-mamolik" asari X asr geografik maktabining yirik yodgorligidir [6]. Unda Movarounnahr vohalari, shaharlar, savdo yo'llari va sug'orish tarmoqlari o'zaro bog'liq iqtisodiy hudud sifatida tasvirlanadi. Muallif yirik markazlar bilan cheklanmay, shahar atroflari va yo'l bo'yidagi manzilgohlarning xo'jalik vazifalariga ham e'tibor beradi. Bu holat o'rta asr iqtisodiyotini faqat poytaxtlar doirasida emas, balki voha va tranzit tarmoqlari asosida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Ibn Havqalning "Surat al-arz" asari al-Istaxriy an'anasini davom ettiradi, biroq muallif sayohatlari davomida to'plagan kuzatuvlari bilan uni boyitadi [7]. Uning Movarounnahr shaharlari, bozorlar, hunarmandchilik va zarbxonalar haqidagi ma'lumotlari ayniqsa

qimmatlidir. Iloqdagi oltin va kumush konlari, metallni qayta ishlash hamda tanga zarbi haqidagi xabarlar tog'-kon sanoati, hunarmandchilik va pul muomalasi yagona ishlab chiqarish zanjiri sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Al-Maqdisiyning "Ahsan at-taqosim fi ma'rifat al-aqolim" asari X asr oxiridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni eng batafsil tasvirlagan manbalardan biridir [8]. Muallif shaharlarning tuzilishi, bozorlari, mahsulotlari, kasblari va aholisi haqidagi kuzatuvlarni keltiradi. Uning Amudaryo kechuvlarida yuklardan undirilgan boj miqdori haqidagi ma'lumoti savdo oqimlari davlat tomonidan nazorat qilinganini ko'rsatadi. Boj maskanlari daromad yig'ish bilan birga yo'l xavfsizligi va tovarlar harakatini nazorat qilish vazifasini ham bajargan.

Qudama ibn Ja'farning "Kitob al-xiroj va sino'at al-kitoba" asari davlat boshqaruvi, soliqlar va devon tizimini o'rganishda alohida ahamiyatga ega [10]. Asar faqat O'rta Osiyoga bag'ishlanmagan bo'lsa-da, undagi xiroj, boj, yo'l va viloyat daromadlariga oid tushunchalar Movarounnahr haqidagi mahalliy va geografik xabarlarni sharhlashga yordam beradi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih al-ulum" asari ma'muriy, moliyaviy va ilmiy terminologiyani tizimlashtirgan ensiklopedik manbadir [15]. Undagi devon, xiroj, ushr, vazn va o'lchovlarga oid izohlar tarixiy-geografik asarlardagi iqtisodiy ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish imkonini beradi. Demak, bunday asarlar iqtisodiy voqealarni bevosita hikoya qilmasa ham, manbalarda qo'llangan tushunchalarning mazmunini ochib beruvchi muhim kalit vazifasini bajaradi.

Arab tilidagi manbalarni qiyosiy tahlil qilish O'rta Osiyo iqtisodiyotining tayanchi sug'orma dehqonchilik bo'lganini ko'rsatadi. Kanallarni qazish va ta'mirlash, suvni taqsimlash hamda hosildor yerlarni nazorat qilish davlat, mahalliy yer egalari va qishloq jamoalari manfaatlarini bir nuqtada tutashtirgan. Narshaxiydagi mahalliy tafsilotlar al-Istaxriy va Ibn Havqaldagi vohaviy tavsiflar bilan birga o'qilganda irrigatsiya iqtisodiy barqarorlikning bosh sharti bo'lganligi ayonlashadi.

Shahar iqtisodiyotida shahriston va rabodning vazifalari farqlangan. Rabodlarda ustaxonalar, bozorlar va savdo rastalarining kengayishi ishlab chiqarishning shahar devorlaridan tashqariga chiqib, ixtisoslashgan hududlarda jamlanganini bildiradi. Buxoro to'qimachilik va savdo, Samarqand zarbxona va hunarmandchilik, Iloq konchilik va metallurgiya, Marv esa ipak mahsulotlari bilan ajralib turgan. Bunday ixtisoslashuv shaharlar o'rtasidagi muntazam mahsulot ayirboshlashni kuchaytirgan.

Savdo tizimi faqat uzoq karvon yo'llaridan iborat bo'lmagan. Narshaxiy tasvirlagan qishloq bozorlari va yarmarkalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yirik shaharlar bilan bog'lagan. Ibn Xurdodbeh, al-Istaxriy, Ibn Havqal va al-Maqdisiy ma'lumotlari esa ushbu mahalliy tarmoqlarning Xuroson, Eron, Hindiston, Xitoy va dasht hududlariga olib boruvchi yo'llar bilan tutashganini ko'rsatadi. Karvonsaroy va ribatlar savdo infratuzilmasining xavfsizlik, saqlash va xizmat ko'rsatish vazifalarini bajargan.

Pul muomalasi haqidagi yozma xabarlar numizmatik materiallar bilan birgalikda talqin qilinishi kerak. Somoniylar davrida oltin dinor, kumush dirham va mis fuluslar turli iqtisodiy vazifalarni bajargan. Narshaxiy tangalar va ayirboshlash an'analari haqida ma'lumot beradi, geograflar esa zarbxonalar va savdo markazlarini qayd etadi. Somoniy dirhamlarining Sharqiy Yevropa va Skandinaviya hududlaridan topilishi yozma manbalarda tasvirlangan savdo geografiyasining kengligini tasdiqlaydi [17; 18].

Ijtimoiy munosabatlar ham iqtisodiy faoliyat bilan chambarchas bog'liq edi. "Dehqon" atamasi ko'pincha oddiy yer haydovchini emas, mahalliy yer egasi va nufuzli tabaqa vakilini anglatgan. Savdogarlar, hunarmandlar, ulamolar, harbiylar va amaldorlar iqtisodiy resurslardan turlicha foydalangan. Vaqf mulklari masjid, madrasa, rabat va kambag'allarni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, ularning kengayishi davlatning soliq bazasiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Xulosa. IX–XI asrlarda arab tilida yaratilgan tarixiy, geografik va siyosiy-iqtisodiy asarlar O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy tarixining asosiy yozma manbalarini tashkil etadi.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" mahalliy xo'jalik hayotini, at-Tabariy va al-Utbiy siyosiy jarayonlarning iqtisodiy sharoitini, Ibn Xurdodbeh, al-Istaxriy, Ibn Havqal va al-Maqdisiy esa mintaqaning iqtisodiy geografiyasini yoritadi. Qudama ibn Ja'far va al-Xorazmiy asarlari fiskal hamda ma'muriy terminlarni tushunishga yordam beradi.

Ushbu manbalar O'rta Osiyoda siyosiy hayot, sulolalar almashuvi, sug'orma dehqonchilik, ichki va tashqi savdo, boj tizimi, yer munosabatlari va pul muomalasi o'zaro bog'langan murakkab xo'jalik tizimini shakllantirganini ko'rsatadi. Ularning eng katta ilmiy qiymati alohida faktlarda emas, balki turli masalalarga oid ma'lumotlarni o'zaro solishtirish orqali mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini tiklash imkoniyatidadir.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Мухаммад ан-Наршахи. Та'рих-и Бухара. История Бухары / вступ. ст. Д. Ю. Юсуповой ; пер., коммент. и примеч. Ш. С. Камолиддина ; археол.-топогр. коммент. Е. Г. Некрасовой. – Ташкент : SMI-ASIA, 2011.
2. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. I. Москва, 1963.
3. Ibn Khordādhbeh. Kitāb al-Masālik wa-l-Mamālik. Ed. M. J. de Goeje. Leiden: E. J. Brill, 1889.
4. Al-Ya'qūbī. Kitāb al-Buldān. Ed. M. J. de Goeje. Leiden: E. J. Brill, 1892.
5. Ibn al-Faqīh al-Hamadhānī. Mukhtaṣar Kitāb al-Buldān. Ed. M. J. de Goeje. Leiden: E. J. Brill, 1885.
6. Al-Iṣṭakhrī. Kitāb al-Masālik wa-l-Mamālik. Ed. M. J. de Goeje. Leiden: E. J. Brill, 1870.
7. Ибн Ҳавқал. Сурат ал-ард. Ернинг сурати / араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент. 2011.
8. Al-Maqdisī. Aḥsan al-Taḳāsim fī Ma'rifat al-Aqālīm. Ed. M. J. de Goeje. 2nd ed. Leiden: E. J. Brill, 1906.
9. Qudāma ibn Ja'far. Kitāb al-Kharāj wa-Ṣinā'at al-Kitāba. Ed. M. J. de Goeje. Leiden: E. J. Brill, 1889.
10. Al-Ṭabarī, Muḥammad ibn Jarīr. Ta'rīkh al-Rusul wa-l-Mulūk. Ed. M. J. de Goeje et al. Leiden: E. J. Brill, 1879–1901.
11. Al-'Utbi. Kitāb al-Yamīnī. Arabic editions and translations.
12. Al-Khwārizmī, Abū 'Abdallāh Muḥammad ibn Aḥmad. Mafātīḥ al-'Ulūm. Ed. G. van Vloten. Leiden: E. J. Brill, 1895.
13. Давидович Е. А. Денежное обращение в Мавераннахре при Саманидах // Нумизматика и эпиграфика. Т. VI. Москва, 1966. С. 103–134.
14. Kovalev R. K. Dirham Mint Output of Samanid Samarqand and Its Connection to the Beginnings of Trade with Northern Europe, Tenth Century // Histoire & Mesure. 2002. Vol. XVII. No. 3–4. P. 197–216.
15. Bosworth C. E. The Samanids // The Cambridge History of Iran. Vol. IV. Cambridge: Cambridge University Press, 1975.
16. Камолиддин Ш. С. Саманиды: из истории государственности Узбекистана в IX–X вв. – Ташкент : Fan ziyosi, 2026. – 424 с.
17. Камолиддин, Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX — начала XIII вв. – Ташкент : Ўзбекистон, 1996. – 422 с.
18. Umarov B. B. Abu Bakr Narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi // FarDU ilmiy xabarlar. – 2023. – № 2. – В. 258–261.
19. Umarov B. B. VIII-X asrlarda Buxoro shahri tarixiy topografiyasi (shahriston misolida) // «Ёш олимлар ахборотномаси»–«Вестник молодых ученых». – 2024. – №. Спецвыпуск. – С. 103-108.